

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TA'LIM SIFATIGA TA'SIRI

Turabova Marjona Vaxobjon qizi¹

¹ “Ta’lim va ta’lim jarayonlarini boshqarish” 3-kurs talabasi, Tashkent International University of Education

¹ E-mail: marjonaturabova14@gmail.com

DOI: 10.61587/mmit.tiue.uz.v1i1.303

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada raqamli texnologiyalarning ta’lim tizimidagi o’rni, ularning ta’lim sifatiga ko’rsatadigan ijobiy va salbiy ta’sirlari tahlil qilinadi. Shunindek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali o’quv jarayonining samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot davomida elektron ta’lim platformalari, sun’iy intellekt, masofaviy ta’lim va multimedia vositalarining ta’limdagi ahamiyati ko’rib chiqiladi

Kalit so’zlar: raqamli texnologiyalar, ta’lim sifati, elektron ta’lim masofaviy ta’lim, sun’iy intellekt innovatsion pedagogika, multimedia.

THE IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE QUALITY OF EDUCATION

Turabova Marjona Vaxobjon qizi¹,

¹ 3rd-year student of “Education and Educational Process Management”, Tashkent International University of Education

¹ E-mail: marjonaturabova14@gmail.com

Abstract. This scientific article analyzes the role of digital technologies in the education system and their positive and negative impact on the quality of education. It also addresses issues of improving the efficiency of the educational process through the use of modern information and communication technologies. The study examines the importance of e-learning platforms, artificial intelligence, distance learning, and multimedia tools in education.

Keywords: digital technologies, quality of education, e-learning, distance learning, artificial intelligence, innovative pedagogy, multimedia.

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborotlashuv davrida raqamli texnologiyalar inson hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib bormoqda. Ayniqsa, ta’lim tizimida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o’quv jarayonining samaradorligini oshirish, bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ta’lim sifatini yanada yaxshilashda muhim omil bo’lib xizmat qilmoqda. Shiddat bilan rivojlanayotgan dunyo mamlakatlarida raqamli ta’lim tizimlarini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biriga aylangan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar bevosita ta’lim tizimiga o’zining ijobiy ta’sirini ko’rsatmoqda.

Shunindek, O‘zbekistonda ta’lim sohasini raqamlashtirish borasida amalga oshirilayotgan chora tadbirlar, mavjud muammolar, ularning yechim yo’llari va kelajakda rivojlanish istiqbollari yoritilgan. Chet el tajribalari bilan qiyosiy tahlil asosida raqamli texnologiyalarni joriy etishda e’tibor qaratilishi lozim bo’lgan jihatlar ko’rsatib o’tilgan. Ushbu tadqiqot natijalari oliy va umumiy o’rta ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish, pedagoglar malakasini oshirish va raqamli savodxonlikni rivojlantirish bo’yicha amaliy takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Ta'lim sohasida kompyuter texnologiyalari, internet tarmoqlari, elektron platformalar va mobil ilovalarning keng qo'llanilishi o'qituvchi hamda talabalar o'rtasidagi interaktiv aloqani mustahkamlamoqda. Shu bilan birga, masofaviy ta'lim shakllari orqali geografik va vaqt cheklovlari kamaymoqda. "Raqamli texnologiyalar o'qitish jarayonini takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning ilmiy salohiyatini rivojlantirish va ta'limni yanada demokratiklashtirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi".

Mamlakatimizda 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni raqamli texnologiyalarining barcha sohalarga samarali tatbiq qilish, milliy iqtisodiyot tarmoqlarini raqobatbardoshligini oshirishda muhim omillardan biri sifatida xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar sharhi

Raqamli savodxonlikni rivojlantirish bugungi kunda davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblaniladi. Raqamli texnologiyalar kundalik hayotimizga jadalik bilan kirib borar ekan, fuqarolarning raqamli savodxonligi darajasini oshirish jamiyat va iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy shartlaridan biriga aylanmoqda. Bu borada ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda, lekin, mavjud muammolarni hal etish uchun davlat, ta'lim muassasalari, nodavlat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining hamkorligi talab etilinadi. Raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishga o'rgatish orqali, O'zbekiston o'zining raqamli kelajagini barpo etishi mumkin desak mubolag'a bo'lmaydi.

Raqamli ta'lim tizimini yuksalishiga Wi-Fi zonalar IT parklar ochilishi katta xizmat qiladi. Ta'lim beruvchilarni raqamli texnologiyalar bilan ishlash qobiliyatini o'stirish va internet orqali kurslar tashkil etish imkoniyati tug'iladi. "Bu esa o'z navbatida ta'lim beruvchilarni o'z ustida ko'proq ishlashi va raqobat tufayli ta'lim sifatini yanada ortishiga xizmat qiladi".

Raqamli texnologiyalari bugungi kunda ish jarayonlarini tezlashtirish, inson mehnatini yengillashtirish, yangi kasb va imkoniyatlarni yaratishda hamda global aloqani osonlashtirishda katta ro'l o'ynamoqda. Barcha sohalarda keng foydalanilib inson hayotida katta o'zgartirishlarga sabab bo'lmoqda desam mubolag'a bo'lmaydi.

Tadqiqot usuli

Raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga qanday integratsiya qilish, ularning samaradorligini o'rganish va ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasini baholash uchun qo'llaniladigan ilmiy tadqiqot usullarining yig'indisidir. Bunday tadqiqotlar, ta'lim tizimining raqamli texnologiyalar bilan qo'llanilishining turli jihatlarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan. O'quv jarayonida raqamli texnologiyalar muhitni interaktiv qilish, ilg'or fikrlashni rag'batlantirish va o'quvchi dars davomida mashg'ulotlarga qatnashishini oshirish va o'qituvchilar uchun qulaylik va tahlil imkoniyatlari yaratishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning kreativ fikrlash, muammolarni hal qilish qobiliyati va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga, motivatsiya hamda darsdagi faolligini oshirishda muhim omil sifatida ko'rib chiqildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Tadqiqotlar shuni anglatadiki, raqamli texnologiyalar ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, interaktiv metodlar qo'llab dars jarayonlarida o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirish darajasi an'anaviy usullarga nisbatan yuqori bo'ladi. Chunki raqamli ta'lim vositalari o'quvchilarni faqat tinglovchi emas, balki daol ishtirikchiga aylatiradi. Ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, raqamli texnologiyalar konstruktivistik ta'lim modelining rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu modelga ko'ra, o'quvchi bilimni tayyor shaklda

emas, balki mustaqil izlanish, tahlil va tajriba asosida egallaydi. Virtual laboratoriyalar va simulyatsion dasturlar aynan shu jarayonni samarali tashkil etadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Muhokama jarayonida yana muhim bir jihat shundaki - raqamli pedagogika tushunchasi kun sayin shakllanayotganidir. Raqamli pedagogika faqat texnologiyadan foydalanish emas, balki yangi metodologik yondashuvlarni yaratishni ham anglatadi.

Raqamli texnologiyalar o'quv jarayonini qiziqarli tashkil etish, monitoring qilish va o'quvchilarning ma'lumotlarini tahlil qilishga yordam beradi. Bu o'qituvchilarga o'quvchilarning o'rganish darajalarini chuqur tahlil qilish va qo'llab-quvvatlashlarini yaratish imkoniyatini beradi. Sun'iy intellekt, virtual haqiqat va kengaytirilgan haqiqat kabi yangi texnologiyalar ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish imkoniyatini beradi.

XULOSA

So'ngi yillarda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi tufayli ta'limni samarali tashkil etishda ulaning imkoniyalaridan yanada kengroq foydalanila boshlandi. Ta'kidlash joizki bugungi kunda ta'limni raqamli texnologiyalarsiz tasavvur eta olmaymiz. Zero, bugungi kunda ta'lim muassasalarida foydalaniladigan multimedia, kompyuter, smartfon, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, raqamli kameralar, proyektorlarning o'zni beqiyosdir. Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llash istiqbollari o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali, qulay va shaxsiylashtirilgan qilishga imkoniyat yaratadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki raqamli texnologiyalarni turli sohalarga nafaqat ta'lim tizimiga joriy etilishi mamlakat ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda katta rol o'ynaydi. Albatta, zamonaviy ta'limni tashkil etish va ta'lim samaradorligini ortishiga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi, ammo ularning samarali qo'llanilishi uchun bir qator muammolarni hal qilish zarur. Ta'lim tizimlari orqali innovatsiyalarni qabul qilish va ularni o'quv jarayoniga integratsiya qilish darkor. Bosqichma – bosqich o'qituvchilarni raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari va eng asosiysi bilim ko'nikmalarini oshirilish lozim. Shuni takidlash joizki, dars jarayonlarida kompyuter qurilmalaridan foydalanish o'qituvchilarga qulaylik yaratibgina qolmay, o'quvchilarni qiziqarli dars mashg'ulotlar bilan ta'minlaydi. Faqat shunda biz raqamli texnologiyalarning ta'lim sifatiga bo'lgan ijobiy ta'siridan to'liq foydalana olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "New innovations in national education" 3-son 1-jild. Yusupova.N Mart 2024.
2. "Raqamli iqtisodiyot" Ilmiy elektron jurnali 9-son. Mirzayev.Sh
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'riasida Farmoni, 05.10.2020-yildagi PF-6079-son